

YUMORISTIK KULGINING XUSUSIYATLARI HAMDA NAZARIY ASOSLARI

Qobilova Aziza Ahrorovna

BuxMTI akademik litseyi o'qituvchisi

Sherbekova Gavhar Yaxshibayevna

BuxMTI akademik litseyi o'qituvchisi

Nuriddinova Mehriniso Fatxiddinovna

BuxMTI akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek bolalar she'riyatida yumoristik kulgi yaratish an'analari, yumoristik kulgining xususiyatlari hamda nazariy asoslari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Yumor, kulgi, bolalar adabiyoti, hazil, hajv, yumor, mutoyiba, kinoya, gelotologiya, kulgining chastotasi, professional komediya.*

Yumorning asosiy xususiyatlari birovning xatti-harakati, kamchiligi, zaifligi yoxud yomon xulq-atvoriga nisbatan beg'araz hajv, quvnoq kulgi orqali munosabat bildirish; shuningdek, adabiy tushuncha sifatida badiiy asar yoki she'rlarda voqelikka nisbatan shunday kayfiyatdagi ifodaning mavjudligidir. Bundan tashqari, bolalar shoirlarining ham o'zlariga xos so'z o'yinlari, parodiya, kinoya, loflardan foydalanish, kulgili motiv va obrazlar yaratish, hayotiy voqelikka teskari ifoda va usullarni qo'llashdagi uslubiy rang-barangliklari mavjud. Qolaversa, har bir ijtimoiy davrda bolalar adabiyoti, jumladan, she'riyatida yumorning badiiy-estetik vazifasi, ahamiyati, omillari turlicha bo'lishi mumkin.

Yetuk pedagog V.Suxomlinskiy "Bolalik – bu kelajak katta hayotga tayyorgarlik emas, balki inson umrining o'ziga xos yorqin va aslo takrorlanmas nozik davridir", deya ta'kidlagan edi. Kichkintoylar qalbidagi eng go'zal tuyg'ular ayni shu davrda shakllanadi, bunda beg'ubor yumor va uni keltirib chiqaruvchi xatti-harakat va holatlar, ulardan chiqarilgan xulosalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, yosh avlod qalbiga yaxshilik urug'ini sochish, ularni to'g'ri, halol va pok, mehnatsevar, odobli qilib tarbiyalash nafaqat ularning, balki kelajak taqdirini tayin etishda muhim omil ekan, bu jarayonda yumorning badiiy-estetik imkoniyatlaridan foydalanish barcha davrlar uchun dolzarb bo'lib qolaveradi.

Binobarin, bolaning quvnoqlik orqali hayotga, atrof-olamga munosabatini shakllantirish, biror bir kamchilikni kulgi vositasida badiiy aks ettirish yumorning bosh xususiyatidir. Shu o'rinda o'zbek xalqining ulug' shoiri A.Oripov:

Dunyo bir boladir, sho'x va betimsol,

Uning axtargani shodlik va kulgu, –

satrlarini bitganida, bola va kulgu so'zlarini parallel qo'llashi bejiz emasligi anglashiladi.

Negaki, bolalar kulishga, hazil-mutoyibaga o'ch bo'ladilar. To'g'ri, inson tafakkurining jadallashuvi poetik tafakkur taraqqiyotini taqozo etishi, yumorga munosabat ma'lum darajada o'zgarishi mumkin. Biroq bu jarayonda "Yumor bilan insonlar g'azabli ravishda

masxara qilinmasligi, ular ruhan o'ldiradigan kulgiga duchor bo'lmasligi"¹⁴ bilan bog'liq pozitsiya har qanday holatda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bolaning birinchi tabassumi nafaqat onani, balki uning atrofidagi barchani xursand qiladi. Kichkintoylar o'zi uchun hayotning har bir yorqin va yoqimli ko'rinishini, xoh Yangi yil archasi, xoh yangi o'yinchoq bo'lsin, yoki qushlarning chug'urlashi-yu jonivorlarning ovozi eshitib ham xursand bo'lib kuladi. Tabiatan quvnoq va xushchaqchaq, samimiy, hazilga moyil insonlarning kulgisi ham shunday tabiiylikka ega.

XX asr boshlarida ko'p asrlik adabiyotimizdagi o'ziga xos an'analar ta'sirida qaror topgan bolalar adabiyoti kichkintoylar, bolalar va o'smirlar hayoti haqida bahs yurituvchi, ularning orzu-intilishlarini, zavq bag'ishlaydigan sarguzashtlarini aks ettiruvchi ma'naviy-ma'rifiy, estetik omil sifatida tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib kelmoqda. Ayniqsa, bolalar she'riyati sohaning ilk kashshoflari Abdulla Avloniy, Hamza, Elbek kabi ma'rifatparvarlar ijodi orqali yuksalib bordi. Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min va boshqa o'nlab bolalar shoirlarining har biri she'riyatning turli janriy yo'nalishlarida yumoristik obraz yaratish, tasvir ifodasida o'ziga xos maktab paydo bo'lishiga xizmat qildilar.

O'tgan asrning 70-yillarida boshlangan Anvar Obidjon va Tursunboy Adashboyev ijodi esa boy xalq og'zaki ijodi, jahon va o'zbek bolalar adabiyotidagi serqirra an'analar ta'sirida badiiy yuksak cho'qqiga erishdi, deyish mumkin. Zotan, mazkur shoirlarning yumoristik asarlar yaratishdagi o'ziga xos uslubiy, ijodiy mahorat qirralari tahsinga sazovor.

Keyinchalik bolalar uchun barkamol asarlar, jumladan, yumoristik she'rlar yaratish miqdori yanada kengayib, ustozlar safini H.Imonberdiyev, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab, X.Komilov, Orif To'xtash, Erpo'lat Baxt singari navqiron qalamkashlar to'ldirdilar. Bu boradagi izlanishlar bugun ham muvaffaqiyat bilan davom ettirilayotgani e'tiborlidir.

Ayni shu nuqtai nazardan, o'zbek bolalar yumoristik she'riyati tadriji nazar solinsa, bu boradagi izlanishlarni XX asrning 20-70-yillari davridagi, istiqlolgacha bo'lgan davrdagi hamda istiqloq davridagi yumoristik she'rlar yaratish an'anasi tarzida tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Binobarin, o'zbek bolalar adabiyoti va she'riyati o'z tarixiy tadriji davomida umumadabiyot taraqqiyot tamoyillariga hamohang rivojlanish bilan birga, jahon hamda rus bolalar adabiyoti an'analarini o'ziga xos tarzda davom ettirdi. Zamonaviy o'zbek bolalar she'riyatining takomillashuvi G'afur G'ulom, Sulton Jo'ra, Zafar Diyor, Qudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min kabi shoirlarimizning bolalarga bag'ishlangan qator she'rlarida ko'zga tashlanadi. Biroq bu jarayonda o'ziga xosliklar talaygina. Zero, madaniyatlararo rang-baranglik bolalar asarlarida ham yaqqol ifoda topadi. Ayniqsa, bolalarbop yumoristik she'riyatimizdagi hajv, kinoya, qochirim, parodiya hamda so'z o'yinlaridagi ma'no tovlanishlari, kulgu uyg'otuvchi detallar milliy mentalitetimizga xos bo'lsa, jahon bolalar adabiyotining yumoristik asarlari o'zgacha detallarga ega. Ularning ifoda usullari, til xususiyatlari, bolalarning voqelikka munosabatiga xos talqinlari ham turlicha. Aytaylik, ingliz bolalar she'riyatidagi yumor

¹⁴ Адабиёт назарияси. Икки томлик. – Тошкент: Фан, 1979. II том. – 312-313-б.

kulgu uyg'otuvchi detallari bilan keskin ajralib turadi. Bunda shoirning ijodiy uslubidan tashqari, so'z va tushunchalarning, ifoda usullarining o'ziga xosligini ko'rish mumkin. Buni ingliz bolalar she'riyatida folklor ta'sirida davom etib kelayotgan alohida janrlar ("shivorot-navivorot" – teskari holat, barchasi teskariga ifoda etiladigan voqealar orqali kulgi uyg'otish) misolida yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, shirinliklar daraxtlarda, poliz ekinlari esa dengiz ostida o'sadi, zaharli o'tlar sigirlarni yeydi, mushuk sichqondan qo'rqadi, xuddi shunday, cho'chqalar bilan o'rdaklarning o'rni almashinib, kulgi motivini hosil qiladi.

Yana shunisi diqqatga sazovorki, har bir xalqning latifa obyektlari, joylari bor. Masalan, Angliyadagi Gotem qishlog'ida yashaydiganlar haqida to'qilgan talay latifalar mavjud. N.N.Bolotnova shunday latifalar haqida to'xtalib, ularda qahramonlar gohida yozning uzoqroq cho'zilishini xohlab, sayroqi qushlarning atrofini qalin devor bilan o'rab qo'yishi, gohida uzun tayoq bilan suv havzalaridan Oyni "ovlashi", gohida esa tog'ora bilan dengiz sayohatiga jo'nashi kabilarni sanab o'tadi¹⁵.

O'zbek adabiyotida ham latifabop voqealar kechadigan obyektlar, joy nomlari (Shirinqishloq, Shakarqishloq, Donishqishloq), obrazlar (Nasriddin Afandi, Matmusa) mavjud. Bu jihatdan, asarlarida satira va yumor bir-biriga tez-tez "o'rin bo'shatib beradigan" Xudoyberdi To'xtaboyev (Hoshimjon) va Anvar Obidjon (Meshpolvon, Alamazon, Usta Gulmat) ijodi alohida ahamiyatga ega. Ikki adibimiz ijodidagi bu adabiy qahramonlar ham tasodifiy bo'lmay, ularning yaratilishida jahon va o'zbek folklori hamda yozma adabiyotidagi an'analar o'ziga xos poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Shu kabi serqirra manbalardan oziqlangan o'zbek bolalar she'riyati tarixida yumor yaratish an'analari turli avlod bolalarining xarakter-xususiyatlari, tafakkuri, jamiyat va tabiatga munosabati fonida o'zgarib, turlanib, badiiy-estetik vazifasi takomillashib kelganligini ko'rish mumkin.

Aytaylik, o'tgan asrning 30-yillarida kichik maktab yoshidagi bolalar xarakterida uchrab turadigan kamchiliklarni fosh etish maqsadida yozilgan ayrim she'rlarda ularning gigiyena qoidalariga rioya qilmay kir-chir yurishi, tishlarini o'z vaqtida davolatmasligi (G'afur G'ulomning "Nortojining kurak tishi". "Ahmad yomon bola emas-ku, ammo..."), yoki maktabda fanlardan past o'zlashtiruvchi 8-11 yoshdagi o'quvchilarning psixologik obrazi (Sulton Jo'raning "Cho'ntak", "Mamatning kechirmishlari", "Yolg'onchi", "Qarzdor", Quddus Muhammadiyning "Dum" kabi she'rlari) kulgi ostiga olingan.

Bu kabi obraz va detallar ifodasida jahon bolalar she'riyati ta'siri ustuvor ekanligini anglash qiyin emas. Chunki ayni shu davrda rus va boshqa qardosh xalqlar bolalar she'riyatida ham bu mavzularga faol murojaat qilinar, yangicha hayot tarzi bolalar shoirlariga shu kabi yangi mavzularni taqdim etgan edi. Demak, bundan shuni anglash mumkinki, har bir davrning ijtimoiy-maishiy hayot tarzi, insonlardagi tushuncha va tafakkur yumoristik she'rlarning mavzusini, sujetini, motivini belgilashi mumkin.

Jumladan, G'afur G'ulomning shu kabi qator yumoristik she'rlari o'tgan asrning 30-yillarida rus bolalar adabiyotidagi K.Chukovskiy ("Moydodir"), S.Marshak she'rlari

¹⁵ Болотнова Н.Н. Филологический анализ текста: учебное пособие – Москва: «Флинта», 2007. – 520 с.

ta'sirida yozilgan bo'lib, asosan, kir-chir yuradigan, gigiyena qoidalariga rioya qilmaydigan kichkintoylarning kamchiliklarini kulgi orqali fosh qilishga qaratilgan. Chunonchi, "Nortojining kurak tishi" she'ri – tishni ozoda saqlamaslik oqibatida kelib chiqqan qator ko'ngilsizliklar haqida. Ayniqsa, Nortojining "Bolalar tegishib: "so'yloq" deyishi, shishgan milklarining juda ko'rimsizligi, "s" va "sh" tovushlarini ayta olmay, so'z aytish o'rniga hushtak chalishi, "sho'rva", "shamol" so'zlarini ayta olmay, "Voy tisim, voy tisim, voy tisginam-ey", deyishi kulgiga sabab bo'ladi. Shoir bu manzarani yanada bo'rttirib, yaqqolroq ko'rsatish uchun Nortojining og'ziga "ekskursiya" ham qiladi.

G'afur G'ulomning "Kekkamachoq Sobirjon" she'rida esa maqtanchoq, dangasa va e'tiborsiz o'quvchiga ro'para kelamiz. Undan "Jirafa qanday hayvon?" deb so'ralsa, jirafa haqida umuman hech narsa bilmasligini oshkor etib qo'yadi:

– Eh-he, – dedi Sobirjon, –
Jirafa degan hayvon –
Hayvon emas, jonivor.
Mushukdan kichik o'zi,
Kitdan sag'al kattaroq.
Yonboshida to'rt ko'zi,
Timsohday yum-yumaloq.
Shimpanzaday o'rmalab
Yer ostida yashaydi.
Tuyaqushday timdalab,
Yumronqoziq oshaydi.
Oq ayiqday xartumli,
Begemotday uch dumli,
Pomirda ko'p uchraydi...¹⁶

Ta'kidlab ko'rsatilgan so'zlarning barchasi mantiqan noto'g'riligi o'quvchiga oynadek ravshan va she'rda aynan shu so'zlar kulgili vaziyat yaratishning eng muhim vositasi bo'lib xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Адабиёт назарияси. Икки томлик. – Тошкент: Фан, 1979. II том. – 312–313-б.
2. Болотнова Н.Н. Филологический анализ текста: учебное пособие – Москва: «Флинта», 2007. – 520 с.
3. Гафур Гулом. Мукаммал асарлар тўплами. 12 томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1983. – В. 121.
4. Adizova N. Qiziqmachoqlarning janriy tabiati va badiiyati. ff.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 50 b.

¹⁶ Гафур Гулом. Мукаммал асарлар тўплами. 12 томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1983. – В. 121.

5. Quddus Muhammadiy. Ahmadjonning kitobxonligi. <https://ziyouz.uz/uzbek-sheriyati/uzbek-zamonaviy-sheriyati/quddus-muhammadiy>
6. Сафаров О. Шеърим – очил дастурхон. – Т.: “Муסיқа”, 2011. – В. 23.
7. Quddus Muhammadiy. Ahmadjonning kitobxonligi. <https://ziyouz.uz/uzbek-sheriyati/uzbek-zamonaviy-sheriyati/quddus-muhammadiy/>
8. Маршак Самуил. Мастер-ломастер. <https://www.poetry.monster/ru>
9. Ғафур Ғулом. Мукаммал асарлар тўплами. 12 томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1983. – В. 121.